O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

KATTAQO‘RG‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi
№ BD-60310100-.1.18
2025 yil “10” 09

“TASDIQLAYMAN”
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika
instituti rektori
Sh.R.Urakov
2025-yil “10” 09

MAKROIQTISODIYOT
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400 000	- Biznesni boshqarish va Huquq
Ta’lim sohasi:	410 000	- Biznes va Boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishlari:	60310100	- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
		Kvalifikatsiya; Iqtisodchi

Kattaqo‘rg‘on-2025

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
MACROE206	2024-2025	4	6
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		4

1.	Fan nomi	Semestr	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami: (soat)
	Makroiqtisodiyot	4	78	102	180

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad - Talabalarga makroiqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, makroiqtisodiyotning asosiy tushunchalari, qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish. talabalarda makroiqtisodiyot nazariyasi va davlatning makroiqtisodiy siyosati to‘g‘risida bir tizimga solingan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – Talabalarga makroiqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, makroiqtisodiyotning asosiy tushunchalari, qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish. Talabalarga bozor iqtisodiyoti qonunlarini, bozor sub‘ektlarining turli bozor tuzilmalaridagi harakat faoliyatini, ularning faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillarni, istemolchining bozordagi harakatini, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kabi masalalarni, bozordagi talab va taklif to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlar asosida bozorni tahlil qilish va xulosalar chiqarishni, davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashuvi oqibatlarini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o‘rgatishdan iborat.

TOP-300 talik ro‘yxatga kiruvchi xorijiy OTT tajribasiga muvofiqligi:

Ushbu o‘quv fan dasturi Oli ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-martdagi 87-son “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga asosan xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi TOP-300 talik ro‘yxatga kiruvchi Harward University (Rating -4) tajribasiga muvofiq takomillashtirildi.

https://www.harvard.edu/

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1- mavzu. “Makroiqtisodiyot”ning shakllanishi tarixi, predmeti va ob’ekti

Makroiqtisodiyot - milliy ishlab chiqarish, ishsizlik va inflyatsiya umumiy darajasi. Resurslarning cheklanganligi va iqtisodiyotning bosh masalasi. Cheklangan resurslarni taqsimlashni tahlil qilishda talab va taklif modelidan va tovarlar aylanmasi modelidan foydalanish. Resurslarni taqsimlashda narxning ahamiyati. Muvozanat narxning shakllanishi. Bozor va uning vazifasi. Bozor bilan bog‘lik bo‘lmagan faoliyat. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari. Makroiqtisodiyot. milliy ishlab chiqarish, ishsizlik va inflyatsiya. Makroiqtisodiy tahlil. J. Keyns o‘zining "Bandlik, foizlar va pullarning umumiy nazariyasi"

Milliy ishlab chiqarishning yuqori va o'sib borayotgan darajasi, Uchinchi makroiqtisodiy maqsad. Past majburiy ishsizlik sharoitida yuqori ish bilan bandlik.

2- mavzu. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Eng asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichl. birlashtirilgan hisobvaraqlar. Ishlab chiqarish, iste'mol va kapital qo'yilmalar hisobvaraqlari.Daromadlar va xarajatlar hisobvaraqlari. Kapital xarajatlarni moliyalashtirish bo'yicha hisob-kitoblar. YaIM, SIM, YaMD, SMD, ShD, ShTD, C, S.

3-mavzu. Yalpi ichki maxsulot tushunchasi va uni hisoblash usullari va. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar

Muvozanatlik tushunchasi. Yalpi ichki maxsulot tushunchasi va uni hisoblash usullari. Mamlakat rezidentlari. ishlab chiqarish usuli. Xarajatlar usuli. Daromadlar usuli. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G). Sof eksport (Ne). YaIMni daromadlar (taqsimot usuli) bo'yicha hisoblash. YaMD. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar. Mamlakat rezidentlari. YaIM va YaMD ko'rsatkichlari. YaMD = YaIM + mamlakat rezidentlar tomonidan xorijdan olingan daromadlari. Sof ichki mahsulot (SIM) va Sof milliy daromad (SMD) . YaMTD= YaMD + Xorijdan olingan sof transfertlar. YaMTD= Yakuniy iste'mol

4-mavzu. Unumdorlik, ishlab chiqarish va bandlik

Ishsizlik darajasi, Friksion ishsizlik, Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. A. Ouken qonuni, ishlab chiqarish potensiali, O'zbekiston Respublikasida ishsizlikni kamaytirish va aholining ish bilan bandligini ta'minlash siyosatining xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi soni dinamikasi. Iqtisodiyotning beqaror rivojlanishi oqibatida, iqtisodiy pasayish davrida ishlab chiqarish resurslari to'liq foydalanilmay qoladi, Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni

5-mavzu. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari.

Uzoq muddatli davrd. Ishlab chiqarish, bandlilik va inflyatsiya darajasining davriy tebranishga iqtisodiy davr (sikl)lar. «cho'qqi', pasayish (resessiya), pasayishning quyi nuqtasidagi turg'unlik, ko'tarilish bosqichi. Kitchin sikli. Jyuglar sikli. Kuznyets sikli. Kondratyev sikli.

6-mavzu. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari

Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari. Keynschilar maktabi. Neoklassik yondoshuv. Valyuta kurslarining o'zgarishi. Kredit berish shartlarining qimmatlashuv va muddatlarining qisqarishi tomon o'zgarishi. Eflyatsiya. Inflyatsion kutishlar. Inflyatsiyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiyani kelib chiqish sababi. ishlab chiqarishning o'sishi va pasayishi. inflyatsiyani bir-biriga bog'liq bo'lgan pul (monetar) va monetar bo'lmagan omillar ta'siri. talab inflyatsiyasi. taklif inflyatsiyasi

7-mavzu. Yalpi talab-yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. Yalpii talab tushunchasi va grafigi

Yalpi talab-yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. Yalpii talab tushunchasi va grafigi. Yalpi talab(AD). Yalpi talab egri chizig'i. Foiz stavkasi samarasi. Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi. Import xaridlar samarasi. Yalpi taklif grafigi va omillari.

8-mavzu. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari

Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari. Ishlab chiqarish iste'moli. Shaxsiy iste'mol. Ishlab chiqarish jarayoni. Ishlab chiqarish texnologiyasi. Ishlab chiqarish omillari va ularning turlari. Ishlab chiqarish funksiyasi, bir omilli va ko'p omilli ishlab chiqarish funksiyalari. Izokvanta tushunchasi. Izokvantalar kartasi va uning xususiyatlari. Izokvantaning yotiqligi burchagi. Qiska va uzoq muddatlardagi ishlab chiqarish.

9-mavzu. Investisiyalarning mohiyati, grafigi va funksiyasi

Investisiyalarning mohiyati, grafigi va funksiyasi. Investisiyalar yoki kapital qo'yilmalar. Investisiya subyektlari. Investisiya ob'ektlariga. Tovar-moddiy zahiralariga investisiya. Haqiqiy investisiyalar. Xususiy investisiyalar.

10- mavzu. Pul tushunchasi, funktsiyalari, pul muomalasi va uni o'lchash

Pul tushunchasi, funktsiyalari, pul muomalasi va uni o'lchash. inflyatsiya jarayonlari. to'lov vositasi (almashinuv vositasi); qiymat o'lchovi vositasi,. jamg'arish (boylik to'plash) vositasi. Qiymat o'lchovi. Pulning yuqori likvidliligi. Pul agregatlarining tarkibi. Pul taklifi. Bank multiplikatori va Pul bozorida muvozanat. Pul bozori modeli. Pul talabi. Transaksion sabab (joriy bitimlar uchun naqd pulga talab). ehtiyotkorlik sababli (ko'zda tutilmagan holatlar uchun ma'lum miqdorda naqd pullarni saqlash. 3. spekulyativ sabab (foyda olish maqsadida qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun pulga talab).

11-mavzu. Davlat xarajatlari va uni moliyalashtirish

Davlat byudjetining mohiyati va funksiyalari. Moliyaviy faoliyatni, moliyaviy munosabatlar. Davlat byudjeti moliyaviy balans. Davlat byudjeti daromadlari soliq va soliq bo'lmagan tushumlar. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida iqtisodiyotga xarajatlar. Subsidiyalar. Davlat byudjeti xarajatlari.

12-mavzu. Soliqlarning turlari va funksiyalari

Soliqlarning turlari va funksiyalari. Soliqlar majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlari. Korxona va tashkilotlar. Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq. Yer osti boyliklaridan foydalanish solig'i. .Kimmatli qog'ozlarni ruyxatdan o'tkazish yig'imi. Soliqlar soliqqa tortish obyekti.

13-mavzu.Kapital qo'yilmalar va kapital bozori

Asosiy va aylanma kapital mablag'lari. Ssuda foizi. Loyixa tushunchasi. Mamlakatni modernizatsiya qilishda investitsiyalar va ularning ahamiyati. YAlpi investitsiyalash. Investitsiyani qoplash. Sof investitsiya tushunchasi. CHekli sof qoplash. CHekli ichki qoplash. CHekli qoplash normasi koeffitsienti. Uzoq muddatli oraliqdagi investitsiya. Jamg'arma va vaqt bo'yicha chekli tanlash normasi. Qiymatni diskontlash. Investitsiyani hisoblashdagi diskonlangan qiymat. Investitsiyaga talab. Investitsiyaga inflyasiyaning ta'siri. Asosiy fondlarning joriy harajatlarini va istiqboldagi daromadini baholash. Xududiy investitsiya dasturlariga kirgan loyixalar va ularni moliyalashtirish manbalari. Ziyon miqdorini aniqlash. Ichki va tashqi investitsiya. Korxonaning investitsiya sohasidagi qaror qabul qilish mezoni. Investitsiya samaradorligi. Obligatsiya qiymati va undan keladigan daromad. Muddatsiz obligatsiya. Er bozori, er taklifi, er rentasi. Absolyut renta. Differensial renta. Er narxi.

14-mavzu. Monetar siyosat va markaziy bank

Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. vaqtincha bo'sh mablag'larni to'plash. Vaqtincha tasarruf etish uchun bo'sh mablag'larni taqdim etish. Kredit pullarini yaratish. Kreditni tartibga solish. Pul chiqarish (emissiya). Qimmatli qog'ozlarni chiqarish (emissiya). O'zbekistondagi bank tizimi. Iste'mol krediti. Lizing krediti. Ipoteka krediti. Davlat krediti. Faktoring krediti. Xalqaro kredit.

15-mavzu. Kredit, uning vazifalari va turlari. Pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari va ko'rinishlari

Pul-kredit muassasalarida to'plangan vaqtincha bo'sh mablag'lar. Kredit munosabatlarining umumiyligi. Tijorat kredit. Bank krediti. Xo'jaliklararo krediti. Iste'mol krediti Lizing krediti. Ipoteka krediti. Davlat krediti.Faktoring krediti Xalqaro kredit. Pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari va ko'rinishlari. Pul kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikni, baholarning hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlash. Majburiy zahiralar normasi. . Ochiq bozordagi operasiyalar. majburiy bank zahira me'yorini o'zgartirish siyosati. Ochiq bozordagi operasiyalar.

16-mavzu. Iqtisodiy o'sish tushunchasi, o'lchanishi, omillari va tiplari

Iqtisodiy o'sish tushunchasi, o'lchanishi, omillari va tiplari. Iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasi. Iqtisodiy o'sishni o'lchashning asosiy ko'rsatkichlari. iqtisodiy o'sish omillari. ekstensiv iqtisodiy o'sish. Ekstensiv iqtisodiy o'sish yangi korxonalar. Iqtisodiy o'sishning intensiv tipi.

17-mavzu. Xalqaro savdo

Merkantilistlar va fiziokratlarning xalqaro savdo konsepsiyalari. tashqi savdosi majmui. Merkantilizm. Burjua siyosiy iqtisodining birinchi maktabi. Dastlabki merkantilizm. Kechki merkantilizm. Fiziokratlar. "sof mahsulot" muammosi. J. St. Millning xalqaro savdo nazariyasi. Xalqaro savdoning neoklassik nazariyasi. Xalqaro savdo nazariyasining rivojlanishi. A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi. D. Rikardo A. Smitning «Mutlaq ustunlik' nazariyasi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat sarfi. Xalqaro savdoning neoklassik nazariyasi. Xeksher–Olin konsepsiyasi.

18-mavzu. Valyuta bozori

Valyuta va valyuta tizimi tushunchasi. Milliy valyuta tizimi. Jahon valyuta tizimi. Xalqaro valyuta yoki xalqaro to'lov. Valyuta bozori va valyuta kursini belgilovchi omillar. Erkin suzib yuruvchi valyuta. Qayd etilgan valyuta kursi.

19-mavzu. Davlat va iqtisodiyot. Davlatning ijtimoiy siyosati

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish zarurligi, funksiyalari va vositalari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. Raqobat muhitini yaratish va uni himoya qilish. Ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlash maqsadida resurslarni qayta taqsimlash. Daromad va boyliklarni qayta taqsimlash. Ma'muriy usullar . Iqtisodiy usullar. Daromadlarni va resurslarni ijtimoiy manfaatlarni e'tiborga olgan holda qayta taqsimlash.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Makroiqtisodiyot"ning shakllanishi tarixi, predmeti va ob'ekti
2. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
3. Yalpi ichki maxsulot tushunchasi va uni hisoblash usullari va. Milliy

hisobchilik tizimidagi boshqa ko‘rsatkichlar
4. Unumdorlik, ishlab chiqarish va bandlik
5. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari.
6. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari
7. Yalpi talab-yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. Yalpii talab tushunchasi va grafigi
8. Iste‘mol va jamg‘arish, ularning grafiklari va funksiyalari
9. Investisiyalarning mohiyati, grafigi va funksiyasi
10. Pul tushunchasi, funktsiyalari, pul muomalasi va uni o‘lchash
11. Davlat xarajatlari va uni moliyalashtirish
12. Soliqlarning turlari va funksiyalari
13. Kapital qo‘yilmalar va kapital bozori
14. Monetar siyosat va markaziy bank
15. Kredit, uning vazifalari va turlari. Pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari va ko‘rinishlari
16. Iqtisodiy o‘sish tushunchasi, o‘lchanishi, omillari va tiplari
17. Xalqaro savdo
18. Valyuta bozori
19. Davlat va iqtisodiyot. Davlatning ijtimoiy siyosati
20. Tashqi savdo siyosat.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Makroiqtisodiy modellar va makroiqtisodiy tahlilda ulardan foydalanish xususiyatlari.
2. Milliy hisobchilik tizimidagi asosiy institusional sektorlar va schyotlar.
3. O‘zbekiston Respublikasida YaImning ishlab chiqarish tarkibi tahlili.
4. O‘zbekiston Respublikasida YaIMning xarajatlarga ko‘ra tarkibi tahlili.
5. O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili.
6. Makroiqtisodiy ayniyatlar.
7. Nominal va real YaIM.
8. Tabiiy ishsizlik nazariyasi.
9. Inflyasiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.
10. Inflyasiyaning yuzaga kelish sabablari va rivojlanish omillari.
11. Inflyasiya va aksilinflyasiya siyosati.
12. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi inflyasiya jarayonlari tahlili.
13. Fillips egri chizig‘i. Ishsizlik va inflyasiya o‘rtasidagi qisqa davrdagi va uzoq davrdagi aloqadorlik.
14. Yalpi talab-yalpi taklif modelida makroiqtisodiy muvozanat.
15. Makroiqtisodiy muvozanatning klassik nazariyasi.
16. Makroiqtisodiy muvozanatning keynscha nazariyasi.
17. Iste‘mol funksiyasi. Makroiqtisodiy tahlilda uni qo‘llash imkoniyatlari.
18. Jamg‘arish va investisiya funksiyalari.
19. Investisiyaga talab funksiyasi. Akselerator modeli.
20. Tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat. IS egri chizig‘i.
21. Daromadlar va xarajatlarning Keynscha modeli.
22. Tejamkorlik paradoksi.
23. Resession va inflyasion uzilish.
24. Pulga talabning keynscha nazariyasi.
25. Pulga talabning klassik nazariyasi.
26. Pul bozorida muvozanat modeli.
27. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tahlili.
28. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari tahlili.
29. Davlat byudjetinig mohiyati va ahamiyati.
30. Soliqlarning funksiyalari va ularni takomillashtirish yo‘llari.
31. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takolmillashtirish yo‘llari.
32. Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda soliq siyosati vositalaridan foydalanish yo‘llari.
33. Soliq siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari.
34. Davlat byudjeti taqchilligi: mohiyati yuzaga kelish sabablari va bartaraf etish yo‘llari.
35. Balanslashgan byudjet multiplikatori.
36. Rag‘batlantiruvchi byudjet-soliq siyosati.
37. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish ko‘rsatkichlari.
38. Pul-kredit siyosatinining mohiyati va vositalari.
39. Monetaristik pul-kredit siyosati.
40. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yildagi pul-kredit siyosati tahlili.
41. Makroiqtisodiy siyosatda hisob stavkasi (qayta moliyalash stavkasi) dan foydalanishning chet-el tajribasi.
42. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta‘sirini bartaraf etishda pul-kredit siyosati va bank tizimining roli.
43. Barqarorlashtirish siyosati.
44. Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish muammolari. Siqib chiqish samarasi.
45. Likvidlilik va investision tuzoq.
46. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat.
47. IS-LM modeli vositasida pul kredit siyosati tahlili.
48. IS-LM modeli vositasida byudjet-soliq siyosati tahlili.
49. Iqtisodiy o‘sish omillari va tiplari.
50. Iqtisodiy o‘sishning R. Solou modeli.
51. Iqtisodiy o‘sishning zamonaviy neoklassik modellari.
52. Nisbiy ustunlik nazariyasi.
53. Xalqaro savdo va daromadlarning taqsimlanishi.
54. Zamonaviy xalqaro savdo nazariyalari.
55. Importni tariflar orqali tartibga solish. (O‘zbekiston Respublikasi misolida).
56. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdosi dinamikasi va tarkibi.

	57. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari. 58. Joriy operasiyalar balansi. 59. Kapital harakati schyoti. 60. To‘lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish usullari va muammolari. 61. Nominal va real valyuta kursi. 62. Xarid qobiliyati pariteti nazariyasi. 63. Makroiqtisodiy siyosatning muvozanatli real valyuta kursi dinamikasiga ta‘siri.
3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • Makroiqtisodiyot fani predmeti, vazifalari, tadqiqot uslublari, fanning bazis tushunchalari, resurslar cheklanganligi va iqtisodiyotning bosh muammosi, bozor iqtisodiyoti tamoyillari, talab va taklif, bozor muvozanati, maksimal va minimal narxlar bozor iqtisodiyotida istemolchi tanlovi va unga ta‘sir etuvchi omillarni, elastiklik yordamida sotuvchi daromadini tahlil etishni hamda soliq yukini iste‘molchi va ishlab chiqaruvchi o‘rtasida taqsimlash masalasini, iste‘molchi tanlovi masalasini, ”Daromad” samarasi va ”Almashtirish” samarasini, ishlab chikarish nazariyasi va funksiyasini, chekli unumdorlikning kamayish qonunini, ishlab chikarish omillaridan samarali foydalanishni, firmalarning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini, ishlab chiqarish xarajatlari va firma foydasini maksimallashtirishni shartlarini haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;*** • Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish, tavakkalchilik va uni pasaytirish, korxonalarda maksimal foydaga erishish nuqtasini aniqlash, talab va taklif elastikligini hisoblash, raqobatlashgan bozor sharoitida narxni belgilash, narxlar diversifikatsiyasidan foydalanish, umumiy, o‘zgaruvchan, o‘zgarmas, chekli harajatlarni xisoblash, umumiy va chekli foydani xisoblash, rakobatlashgan monopoliya, oligopoliya va sof monopoliya sharoitida foydani maksimallashtirish, mexnat bozori, kapital bozori va er bozorini tahlil qilish, kapital qo‘yilmalar samaradorligini aniqlash ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;*** • Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda mikroiqtisodiy modellarni qo‘llash; mikroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil kilish; mikroiqtisodiy siyosatning ijobiy va salbiy oqibatlariga baho berish; mikroiqtisodiy siyosatning natijalarini prognoz kilish ***malakasiga ega bo‘lishi kerak.***
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma‘ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • electron va tarqatma materiallar;
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma.- T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2. Yakubov I.O., Hakimov H.A. Makroiqtisodiyot-2. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2019. - 217 bet. 3. Дэвид Ромер. Высшая макроэкономика: учебник /пер. с англ. под науч. ред. В. М. Полтеровича. - 2-е изд. - Москва : Издательский дом Высш. шк. экономики, 2015 **4. Qo‘shimcha adabiyotlar:** 5. Makroiqtisodiyet. Oliy o‘quv yurtlar uchun darslik / S.S.G‘ulomov,R.X. Alimov, B. T. Salimov va boshq. T.:"Sharq", 2001. -320. 6. Makroekonomika pod red. V.S. Atamonova, S.A. Ivanova, Moskva, 2009, - 320 s 7. Salimov V., Mustafakulov Sh., Salimov D.. Makroiqtisodiyot: masalalar, namunalar, topshiriqlar, testlar. (0‘quv qo‘llanma) — T.:TDIU, 2010-196 bet. **Axborot manbalari (saytlar):** 8. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali. 9. http.//www.lex.uz 10.http.//www.mineconomi.uz 11.http.//www.mf.uz 12.http.//www.stat.uz 13. http.//www.soliq.uz
7.	Fan dasturi Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Kengashning 2025-yil 28-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar**: O.N.Xaitov – KatDPI, “Raqamli texnologiya va iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti (PhD).

Dastur mualliflari:	O.N.Xaitov
E-mail:	oxunjonxaitov1995@gmail.com
Tashkilot:	Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor: **dots. S.M.Elmonov**

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani: **dots S.X.Rajabov**

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi mudiri: **dots.Sh.K.Daliyev**